

*Abduraxmanov SHerzod Nazarbayevich BuxDU Harbiy ta'lim fakulteti katta
o'qituvchisi mustaqil tatqiqotchi.*

UDK 37.013

**O'QUVCHI-YOSHLARGA VATANPARVARLIK TUYG'USINI
SHAKLLANTIRISHDA MAHALLA, OTA-ONANING, BADIY ADABIYOT,
KINO, TEATR VA TASVIRIY SAN'ATNING TUTGAN O'RNI**

***Annotatsiya.** Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatda o'quvchi shaxsi ta'lim-tarbiya jarayonida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish alohida o'rin kasb etadi. Butun dunyo buylab barcha sohalarida yangilanishlar va rivojlanishlar bo'layotgan vaqtda kasb va mutaxassisliklarning turlari soni jihatidan ortib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarning kasbiy yo'naltirishda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish hamda bu tuyg'uni shakllantirishda mahalla, ota-onaning, badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy san'atning tutgan o'rni haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, kasb, mutaxassislik, ma'naviy va moddiy ozuqa, individual xususiyat, mehnatsevarlik.*

**РОЛЬ МАХАЛЛИ, РОДИТЕЛЕЙ, ХУДОЖЕСТВЕННОЙ
ЛИТЕРАТУРЫ, КИНО, ТЕАТРА И ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО
ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У
УЧАЩИХСЯ И МОЛОДЕЖИ.**

***Аннотация.** В современном развивающемся обществе особое место в воспитательно-воспитательном процессе личности школьника занимает формирование чувства патриотизма. В то время как обновления и разработки происходят во всех областях по всему миру, мы наблюдаем растущее число видов профессий и специальностей с точки зрения количества. В данной статье речь идет о роли махалли, родителей, художественной литературы, кино, театра и изобразительного искусства в формировании у молодежи чувства патриотизма и профессиональной ориентации.*

***Ключевые слова:** патриотизм, профессия, специальность, духовно-материальная подпитка, индивидуальный характер, трудолюбие.*

THE ROLE OF THE MAHALLA, PARENTS, FICTION, CINEMA, THEATER AND FINE ARTS IN THE FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM AMONG STUDENTS AND YOUTH

Summary. *In the modern developing society, a special place in the educational process of the student's personality is occupied by the formation of a sense of patriotism. While updates and developments are taking place in all areas around the world, we are seeing a growing number of types of professions and specialties in terms of quantity. This article deals with the role of the mahalla, parents, fiction, cinema, theater and fine arts in the formation of a sense of patriotism and professional orientation among young people.*

Keywords: *patriotism, profession, specialty, spiritual and material nourishment, individual character, hard work.*

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi – tashkil etilayotgan va o‘tkazilayotgan tadbirlarning yoshlar ongi va qalbiga ijobiy ta’sir etib, ularning intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishdagi faolligi oshgani, mustaqil Vatanini himoya qilish hamda xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va mas’uliyatini anglab yetgani, davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida har qanday xizmatga doimo shay turish pozitsiyasi shakllangani bilan belgilanadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan kutilayotgan natija, bu vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak, zamonaviy bilim, mustahkam iroda va qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega yoshlarni o‘zlariga mos kasbni tanlay olishlari va bunda maxalla, ota-onaning, badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy san’atning tutgan o‘rni beqiyos ekanligi malum.

Kasbiy faoliyat inson umrida muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar farzandlarining dastlabki qadamlaridanoq ularning kelajakda qanday kasbning egasi bo‘lishi haqida o‘ylay boshlaydilar. Farzandlarining qiziquvchiligi va qobiliyatlarini nazorat etish orqali ularning kelajakdagi kasb tanlashini aniqlashga harakat qiladi. Ayniqsa, maktabda beriladigan ta’lim-tarbiya, o‘quvchining har xil fanlarga bo‘lgan qizikish munosabatlarini keltirib chiqaradi.

O'quvchi shaxsi ta'lim-tarbiya jarayonida kasblar olami haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur. Butun duniyo buylab barcha sohalarda yangilanishlar va rivojlanishlar bo'layotgan vaqtda kasb va mutaxassisliklarning turlari soni jihatidan ortib borayotganing guvohi bo'lmoqdamiz. Yangi kasb va soxalarning ko'payishi bu shaxsning zarurliklaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. O'sib kelayotgan yosh avlodning ongini to'g'ri kasbga yo'naltirish ta'lim - tarbiya jarayonida dolzarb masala hisoblanadi. Chunki to'g'ri kasb va mehnat bu insonning bir umrlik ma'naviy va moddiy ozuqasi bo'ladi.

Bola shaxsi o'zining tirikchilik manbaini yaratishi orqasida ota-ona mashaqqati turadi. Demak, bola o'z qiziqishi va qobiyatiga mos kasbni tanlashiga ertaroq kirishish zarur. O'z o'zining ichki va tashqi imkoniyatlariga mos kasbni tanladimi, o'sha paytdan boshlab bola mustaqil ulg'aya boshlaydi. Ota-onalar farzandlarining xayotda mustaqil bo'lib, jamiyatda o'z o'rnini topib ketishi uchun 30-40 yil umr sarflaydilar. Ammo bolaning kasb tanlashga bo'lgan qiziqishi bilan ertaroq shug'ullansa, o'z samarasini beradi. YA'ni bola kasb tanlash jarayoni bilan 5-10 yoshdan shug'ullansa, yuqorida sanab o'tilgan jarayonlar uchun 30-40 yil emas, 15-20 yilga qisqaradi. O'quvchi shaxsining yoshligidan qaysi sohaga qiziqishi uning aqliy, jismoniy imkoniyatlariga bog'liq hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida maktabdagi o'qituvchilar, sinf rahbarlari bilan bu haqida maslahatlashib turish lozim.

Bola yoshligidan o'z qobiliyati va e'tedodi, bilimi bilan faol harakat qilishi orqali kasb olamidan o'zligini topib yetuk mutaxassis sifatida tanlashi mumkin. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida ota-onalar yo'l yo'riq, imkoniyatlar yaratib berib, bolaga ilhomlantiruvchi omillar orqali ta'sir etish mumkin. Masalan, o'qituvchilar o'quvchilarga kasblar olami haqida to'liq tushuncha berib, kasb mutaxassislarning ish joylari va ularning faoliyati bilan tanishtirish, ekskursiyalar va ma'ruzalar o'tkazish, turli kasb vakillari bilan uchrashuv, suhbatlar tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda o'quvchi yashab turgan mahalla ham yoshlarning kasbga yo'naltirishda o'z ta'sirlarini maslahatlar berishlari orqali yetkazishlari mumkin. Umumta'lim maktablari o'quvchilarini

uzluksiz kasb-hunarga yoʻnaltirishning dolzarb muammolariga bagʻishlangan metodik seminarlarni tuman, shahar miqyosida tashkil qiladi va oʻtkazadi. Bunday tadbirlar orqali oʻspirin yoshlarda qiziqish, ishtiyoq barqaror maqsadni yuzaga keltiradi. Maktabda oʻquvchilarni kasbga toʻgʻri yoʻnaltirish byoʻicha tadbirlar oʻtkazishda koʻpincha yuqori sinf oʻquvchilari bilan oʻz kasbining yetuk mutaxassisi boʻlgan insonlar bilan suhbatlar oʻtkazish oʻspirinlarda tanlagan kasbining mutaxassisi boʻlib yetishish uchun nimalarga amal yetish kerakligi haqida tushunchalarga ega boʻladi.

Qiziqishlar oʻspirining professional yoʻnalishi va toʻgʻri kasb-hunarni tanlashiga zamin yaratadi. Umuman, inson hayotida professional oʻz-oʻzini anglash katta oʻrin tutadi va juda yoshlik paytidanoq shakllana boshlaydi. Bu jaryonni bosqichlarda tasavvur qilish mumkin:

Birinchi bosqich: bolalar oʻyini, bunda bola ilk yoshlikdanoq u yoki bu kasbga bogʻliq professional rollarni qabul qiladi va uning muhim elementlarini oʻzgacha oʻynaydi (oʻqituvchi, doktor, shofyor, va boshqa shunga uxshash kasblar).

Ikkinchi bosqich: oʻsmirlik fantaziyasi-bunda oʻsmir oʻziga juda yoqqan professional rolni hayolan egallaydi.

Uchinchi bosqich: kasb-hunarni dastlabki tanlash-oʻsmirlik va ilk oʻspirinlik davriga toʻgʻri keladi. Turli-tuman faoliyat turlari dastlab oʻsmirning qiziqishlari nuqtayi nazaridan (bolalarga dars beraman demak oʻqituvchi boʻlaman) keyin uning qobiliyatlari nuqtayi nazaridan va nihoyat, oʻsmirdagi qadriyatlar tizimidagi ahamiyatiga qarab ajratiladi.

Toʻrtinchi bosqich: amaliy qaror qabul qilish - kasbni tanlash. Bunda ikkita muhim jihat bor: konkret ixtisoslikni uning kvalifikatsiyasi xususiyatlari, ishning hajmi, ogʻirligi, masʼuliyatligi va unga yetarli tayyorgarlikning borligi.

Shaxs oʻz qiziqishlariga mos keladigan va har tomanlama maʼqul kasb tanlanganidan soʻng endi ushbu kasbni egallashi uchun astoydil harakat qilish lozim. Jamiyatda talab yuqori boʻlgan kasblarni egallash uchun kuchli raqobatga bardosh berishni ham bilishi kerak. Oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kirish,

talabalar orasida ko‘proq bilim va malaka egallash, keyinchalik o‘zi orzu qilgan ish joyini egallash-bularning barchasiga qiyinchiliklar bilan erishiladi.

O‘spirinnig kasb tanlashda bir qarorga kelishini uning o‘ziga qo‘yib berish va uni kuzatish kerak. Bola shaxsi nimalar bilan mashg‘ul, nimaga qiziqadi, kattalardan faqatgina to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish talab qilinadi. Demak, ota-onaning vazifasi bolaga tayyor qarorni bildirish emas, uning o‘zi qaror qabul qilishga yordam berish kerak. Buning uchun nimalarga amal qilish kerak bo‘ladi.

1-qadam. Kasblar ruyxati va xarakteristikasini bir qog‘ozga yozib chiqish zarur. Inson kasb tanlar ekan, nafaqat tirikchilik vositasini balki hayot tarzi va ijtimoiy muhitni ham tanlaydi. Bola bo‘lajak kasbi qaysi talablarga javob berishi kerakligi ustida bosh qotirsin (ko‘p pul keltirsinmi, tezroq mansab pillapoyalarida ilgarilash imkoni bo‘lsinmi, kasbi elga tanitsinmi va h.k). Bu keljakdagi maqsadlarni aniqlashga yordam beradi.

2-qadam. Qanday kasblar bor va qaysi kasb egasi nima qiladi degan savollarga javob topish. Masalan shifokor, o‘qituvchi, jurnalist kabi keng tarqalganlarni bilamiz. Lekin, tor mutaxassisliklar borki, ularga doim talab mavjud. Masalan, mashina quruvchilari, mikrobiologlar, nomuhandislar va hokazo. Shular haqida malumot berish.

3-qadam. Axborot to‘plash. Bola bilan birgalikda mehnat bozori haqida ma’lumot yig‘ish. Bunda turli ma’lumotlar, ishga taklif e’lonlari yozilgan davriy nashrlar va internet saytlari yordam beradi.

4-qadam. Suhbatdan ishga o‘tish. Quruq suhbatlar bilan cheklanib qolish yaramaydi. O‘smirlar ota-onasing fikriga doim ham qo‘shilavermaydi. Bunda ularning o‘zi orttirgan tajriba ko‘proq foyda beradi. Agar bolani ma’lum yo‘nalish qiziqtirgan bo‘lsa, biror to‘garakda, korxonada ma’lum muddat kasb bilan shug‘ullanishiga imkon yaratib berish lozim.

Kasb tanlash insonning hayot yo‘lidagi eng muhim qadamidir. Inson umri davomida o‘zini baxtli his etishi uchun albatta, atrofida mehribon, sevimli insonlar bo‘lishidan tashqari, o‘z qiziqishi bilan amalga oshiradigan kasb-hunarga ham ega bo‘lishi zarur. Ba’zi yoshlar ko‘p yillar orzu qilib yurgan mutaxassislik uchun oliy

ta'lim muassasasiga hujjat topshirish damlari yaqinlashganda, men kelajakda shu sohaning mutaxassisi bo'la olamanmi, bunga mening bilimim va iqtidorim yetadimi ?» deb o'ylab ikkilanib qoladilar. Ayrimlar o'zlarining ko'p yillik orzularidan ham voz kechib hozirgi kunda dolzarb ahamiyatli o'rin tutayotgan sohaga qiziqib, kutilmaganda o'z fikrlarini o'zgartiradilar. Asosiysi, yoshlar to'g'ri yo'lni tanlash o'z hayotlari oldida juda katta ma'suliyatli vazifa ekanligini yaxshi bilishlari va faqatgina qiziqishlari yuqori bo'lgan kasb sirlarini egallashga intilishi zarur. Har bir o'g'il qizning kasb-hunarli bo'lishi, ularning zamon talablariga mos yetuk shaxslar bo'lib yetishi davlat ahamiyatiga molik masaladir.

Bolaning qiziqishlari katta ahamiyatga ega. 15 yoshga yetgan bolaning qiziqishu qobiliyatlari ancha namoyon bo'lib qoladi. Ana shu qiziqishlarni rag'batlantirish, iste'dodini rivojlantirib borish kerak. Bu rivojlantiruvchi omillarga badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriyy san'atning roli beqiyosdir. Agar bolada estetik faoliyat bilan shug'ullanishga moyillik bo'lsa, ijodkor bo'lsa, demak u kelajakda tasviriyy san'at, musiqa, badiiy-adabiy, aktyorlik va sahnada ishlash layoqatiga egaligini tushuntirish lozim. Masalan, adabiyotdan yaxshi o'qisa, undan fizik chiqmasligi mumkin, lekin yaxshi san'at xodimi yetishib chiqadi. Xullas, bolaning kuchli taraflariga etibor berish lozim.

Shaxs o'zi qiziqqan faoliyat turi bilan shug'ullanar ekan undagi bilim ruxiy jixatdan sabir-qanotlilik, qobilyat, tinimsiz mehnat qilish o'z ishining ustasi bo'lishga olib keladi. Insonning tanlagan soxasi ezulikka yo'nalganligi shaxsning o'ziga va atrofidagilarga nafi tegishi bilan ko'zga tashlanadi. Kasb bu shaxsning zarurliklaridan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsi hayoti davomida qaysi bir kasbning soha vakili bo'lishga ya'niy kasb egasi bo'lishga harakat qiladi. Shaxsning kasb tanlashiga ta'sir qiluchi omillar ko'p bo'lishi mumkin, lekin ishtiyoq, qobilyat va so'nmas qiziqish bilan qilingan faoliyat samarali natija beradi.

Umumta'lim muassasalarida kasbga yo'naltiruvchi vazifasini bajaradigan o'quvchi va psixologlarning o'quvchilarni kasb va mutaxassisliklarining zamonaviy turlari bilan insonga qo'yiladigan ularning talablari, kasbiy ta'lim shakllari va shartlari, professional karyera istiqbollari bilan tanishtirish ishlarini amalga

oshiriladi. O'quvchilar va ularning ota-onalariga akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari mutaxassisliklari va tayyyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha kasbga yo'naltirish bilimlari va kasb-hunar ma'rifati targ'ibotini amalga oshiradi. Umumta'lim maktablari kasbga yo'naltirish xonalarini axborot, ma'lumotnoma, professiografik, tashxislash (anketa, test, metodika, so'rovnoma) va boshqa materiallar bilan jihozlash metodik va amaliy yordam ko'rsatadi. O'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha bandlik xizmatlari, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash va madaniyat organlari, korxona va tashkilotlar axborot vositalari bilan hamkorlik qiladi.

Shaxsning kasbiy shakllanishida ijtimoiy vaziyatlar, ma'naviy muhit va yetakchi faoliyat muhim omil hisoblanadi. Kasbiy ta'lim oila va ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan kasb tanlangunga qadar davom etgan ta'lim-tarbiya negizida, ya'ni kasb tanlashga psixologik tayyorlash hamda mehnat faoliyatiga ruhan tayyyorgarlikka ko'maklashadigan amaliy vosita, omil sifatida davom ettirilgach, u albatta ijobiy natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ–huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.- Toshkent: Sharq, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.- Toshkent: Sharq, 1997.
4. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda «2017-2021-yillarda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli Qarori
7. 2017-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ 3304-sonli Qarori
8. O'zbekiston Respublikasida 2013-2017-yillarda Ta'lim sektorini rivojlantirish rejasi. Toshkent. 2013.
9. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent:Fan va axborot texnologiyalari, 2010
10. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi.-Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2017.
11. Abdukarimov X. «Professionalnoye vospitaniye lichnosti uchitelya v protsessе neprerivnogo pedagogicheskogo obrazovaniya» Avtoref.diss. ... dokt. ped.nauk.-T.1997
12. Abduqodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
13. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. diss... –T.: 2003.
14. Айдарова Л.И. Деятельность школьника. –М.: Просвещение, 1990. Азизходжаева Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Тошкент:Фан ва ахборот технологиялари, 2010
15. Амонашвили Ш.А. Обучение. Оценка. Отметка. –М.: Знание, 1980.